IJTIMOIY TARMOQ FOYDALANUVCHILARIDA EMOTSIONAL INTELLEKT KOMPONENTLARINING NAMOYON BO‘LISH DARAJASI VA TIPOLOGIK XUSUSIYATLARI

Abdihalimova Zarina Qurbonboy qizi
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti
zqurbonboyevna@gmail.com

Zamonaviy raqamli jamiyatda inson kuning katta qismini ijtimoiy tarmoqlarda o‘tkazadi, bu esa muloqot psixologiyasida yangi tadqiqot yo‘nalishlarining shakllanishiga sabab bo‘lmoqda. So‘nggi yillarda katta hajmdagi raqamli ma’lumotlar (big data) tahlili asosida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, emotsional intellekt mavzusi ijtimoiy tarmoqlarda faol muhokama qilinadigan mavzulardan biriga aylangan bo‘lib, bu borada asosan mutaxassislar, psixologlar va tashkilotlar faollik ko‘rsatishadi [5]. Shu bilan birga, oddiy foydalanuvchilarning o‘zida emotsional intellekt qanday darajada namoyon bo‘lishi va bu holat ularning tarmoqdagi xatti-harakatiga qanday ta’sir ko‘rsatishi masalasi alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Emotsional intellekt tushunchasini fanga birinchi bo‘lib olib kirgan P.Salovey va J.Mayer uni shaxsning o‘z va o‘zganing his-tuyg‘ularini idrok etish, farqlash va bu ma’lumotdan o‘z fikrlash hamda xatti-harakatlarini yo‘naltirishda foydalanish qobiliyati sifatida ta’riflaydilar [1]. Ushbu – qobiliyat modelidan farqli o‘laroq, K.Petrides va A.Furnxem tomonidan ishlab chiqilgan trait (xususiyat) modeli emotsional intellektni shaxsning o‘z-o‘ziga xos emotsional idrokalari va dispozitsiyalari majmui sifatida, o‘z-o‘zini baholash so‘rovnomalari orqali o‘lchanadigan shaxs xususiyati sifatida talqin qiladi. Ushbu model to‘rtta asosiy komponentni – farovonlik, o‘z-o‘zini nazorat qilish, ijtimoiylik va emotsionallikni o‘z ichiga oladi [3]. Aynan trait model ijtimoiy tarmoq kabi o‘z-o‘zini namoyon qilishga asoslangan muhitlarda foydalanuvchi xulq-atvorini tushuntirishda yuqori amaliy ahamiyatga ega, chunki u shaxsning o‘ziga xos emotsional dispozitsiyalarini, ya’ni doimiy xatti-harakat uslubini aks ettiradi.

D.Goleman tomonidan ilgari surilgan besh komponentli model – o‘ziga ishonch (o‘z-o‘zini anglash), o‘z-o‘zini tartibga solish, o‘z-o‘zini rag‘batlantirish,

empatiya va ijtimoiy kompetensiya [2] – ijtimoiy tarmoq kontekstida quyidagicha namoyon bo‘ladi: o‘ziga ishonch foydalanuvchining o‘z fikrini ochiq bildirish yoki, aksincha, boshqalar bahosidan qo‘rqib fikrini yashirish darajasida; o‘z-o‘zini tartibga solish – tortishuvli muhokamalarda his-tuyg‘uga berilmasdan javob yozish yoki, aksincha, tezkor va impulsiv reaksiya bildirish darajasida; empatiya – matn va emojilar orqali suhbatdoshning kayfiyatini to‘g‘ri anglash qobiliyatida; ijtimoiy kompetensiya esa – tarmoqda barqaror va sifatli aloqalar qura olish darajasida namoyon bo‘ladi.

Syural va hammualliflari tomonidan 444 nafar respondent (18–43 yosh) ishtirokida o‘tkazilgan tadqiqotda trait emotsional intellekt darajasi bilan ijtimoiy tarmoqdan muammoli foydalanish o‘rtasida statistik jihatdan ishonchli teskari bog‘liqlik aniqlangan ($\beta = –0,39$; $p < 0,001$). Tadqiqot natijalariga ko‘ra, emotsional intellekti past bo‘lgan foydalanuvchilar tarmoqdan asosan o‘zini "mashhurroq" ko‘rsatish (self-presentation) va vaqt o‘tkazish (passing time) motivlari asosida foydalanadilar, bu esa o‘z navbatida muammoli foydalanish darajasini oshiradi [4]. Ushbu natijalar emotsional intellekt darajasi past bo‘lgan shaxslarning real hayotdagi qiyinchiliklarga nisbatan tarmoqni bir turdagi "qochish strategiyasi" sifatida ishlatishlari mumkinligini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarida emotsional intellekt komponentlarining namoyon bo‘lish darajasi bir xil emas va bu farqlar ularning tarmoqdagi muloqot uslubi hamda shaxslararo munosabatlar sifatini belgilaydi. Emotsional intellekti yuqori foydalanuvchilar tarmoqni real munosabatlarni mustahkamlash vositasi sifatida, past bo‘lganlar esa ko‘pincha o‘z-o‘zini namoyish etish yoki muammolardan qochish vositasi sifatida ishlatadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Salovey P., Mayer J.D. Emotional intelligence // Imagination, Cognition and Personality. – 1990. – Vol. 9, No. 3. – P. 185–211.

2. Goleman D. Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. – New York: Bantam Books, 1995. – 352 p.

3. Petrides K.V., Furnham A. Trait emotional intelligence: Psychometric investigation with reference to established trait taxonomies // European Journal of Personality. – 2001. – Vol. 15, No. 6. – P. 425–448.

4. Süral I., Griffiths M.D., Kircaburun K., Emirtekin E. Trait Emotional Intelligence and Problematic Social Media Use Among Adults: The Mediating

Role of Social Media Use Motives // International Journal of Mental Health and Addiction. – 2019. – Vol. 17. – P. 336–345.

5. Shankar S., Tewari V. Understanding the Emotional Intelligence Discourse on Social Media: Insights from the Analysis of Twitter // Journal of Intelligence. – 2021. – Vol. 9, No. 4. – Art. 56.